

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
186 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar	144
Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
Даденова Гульхан Кенесбаевна	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы	156
Абдурахманова М.Т.	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	162
Ahunova Tamannoxon Zokir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli	167
Tojialiyeve Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili	171
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	176
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi	181
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINI MABLAG'LARINI SHAKLLANISHI VA NAZORAT QILINISHI

Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li

Mustaqil izlanuvchi

ORCID:0009-0004-5199-2537

Email: saibov22@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali nodavlat notijorat tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy jihatlari, ularni tashkil etishning asoslari, shuningdek, boshqa davlatlarda huquqiy jihatdan qanday tartibga solinishi bo'yicha ayrim mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlar, foyda olishga qaratilgan faoliyat, muassislar, tashkiliy-huquqiy shakllar, yuridik shaxslar.

Abstract: This article expressed the organizational and legal aspects of the activities of non-governmental non-profit organizations, the basics of organizing non-governmental non-profit organizations, as well as some comments on how they are legally regulated in other countries.

Keywords: non-governmental non-profit organizations, commercial activities, founders, organizational and legal forms, legal entities.

Аннотация: В данной статье были выражены организационные и правовые аспекты деятельности негосударственных некоммерческих организаций, основы организации негосударственных некоммерческих организаций, а также некоторые комментарии по поводу того, как они законодательно регулируются в других странах.

Ключевые слова: негосударственные некоммерческие организации, коммерческая деятельность, учредители, организационно-правовые формы, юридические лица.

KIRISH

Respublikamizda fuqarolik jamiyati negizini tashkil qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlarini (NNT) shakllantirish va rivojlantirish davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

NNTlarni tuzish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning negizida ijtimoiy va iqtisodiy sabablar yotadi. Ijtimoiy sabab sifatida, NNTlar tomonidan davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda ko'rsatiladigan beg'araz yordamni keltirib o'tish mumkin. Iqtisodiy sabab esa, NNTlarning o'z faoliyatini budjet mablag'lari hisobidan emas, balki beg'araz kelib tushgan mablag'lar evaziga yuritishi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash joizki, notijorat tashkilotlarning u yoki bu shakllarining tarqalishiga oid statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'ngilli shakldagi NNTlar barcha notijorat tashkilotlarning 53,9 foizini tashkil etadi. Ikkinchi o'rinda jamoat va diniy tashkilotlar (34,2 %), uchinchi o'rinda esa kooperativlar (14,1 %) turadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nodavlat notijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakliga ta'rif berish uchun uni aniqlab beruvchi har bir belgini tahlil qilish zarur.

Tashkiliy-huquqiy shakl — bir-biriga o'xshash bo'lgan notijorat yuridik shaxslarning huquqiy holatini aniqlash va ularni bir-biridan farqlash imkonini beruvchi mezondir. Bunda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va maxsus qonun hujjatlarida [2] notijorat yuridik shaxslarga xos bo'lgan barcha zarur belgilarga e'tibor qaratish, ularning aniq ta'rifini tushunib olish lozim.

Sh. Nazarovning fikricha [3], har qanday jamoat tashkiloti — ijtimoiy va, eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat tashkilotlari ongli ravishda tizimlashtirilgan ichki tashkiliy munosabatlar yig'indisi va ijtimoiy voqelikka maqsadga muvofiq tarzda ta'sir etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy usullarning butun bir kompleksiga ega institut sifatida maydonga chiqadi.

S. Jo'rayeva [4] fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko'proq siyosiy-huquqiy jihatga e'tibor qaratadi. Jumladan, "aholining siyosiy hayotda faol ishtirok etishiga ko'maklashish, o'z ta'sir doirasidagi fuqarolarni hukumat tomonidan qabul qilingan yoki tayyorlanayotgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish, qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish yo'llarini tushuntirish" deb qayd etilgan.

D. Xolmanova [5] nodavlat notijorat tashkilotlarining paydo bo'lishini xayriya jamg'armalari bilan bog'laydi.

Ye. V. Nelyubinaning [6] qayd etishicha, nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifasi — davlat tomonidan hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalariga jalb qilingan ishtirokchilari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida fuqarolik nazoratini amalga oshirishdir.

L. M. Salamon va S. V. Sokolovski [7] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda nohukumat tashkilotlar davlat va biznes bilan bir qatorda "uchinchi sektor"ni tashkil etishi qayd etilgan. Ular, shuningdek, nodavlat tashkilotlarning yana boshqa nomlanishlari sifatida "fuqarolik tashkilotlari" yoki "notijorat tashkilotlar" atamalari mavjudligini ham e'tirof etishgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy munosabatlari bo'yicha juda kam ilmiy izlanishlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar


Yuqoridagi va boshqa jihatlar tabiiy ravishda NNTlarning respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqida, o'tish davrida mavjud bo'lgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur sektorni yanada rivojlantirish va uni atroflicha qo'llab-quvvatlash obyektiv zarurat ekanligini anglatadi.

NNTlarning iqtisodiy birliklar sifatidagi xususiyatlari ularning faoliyatini moliyalashtirishda, ya'ni mablag'lar resurslarini shakllantirishda yorqin namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, NNTlarning mablag' resurslari quyidagilardan iborat bo'ladi: binolar, inshootlar, turar joylar, uskunalar, inventar, pul mablag'lari, shu jumladan chet el valyutasidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar.

Nodavlat notijorat tashkilotining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi. Nodavlat notijorat tashkiloti o'z majburiyatlari yuzasidan, qonunlarga muvofiq, undirish qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi.

NNTlarning mol-mulki, ularni shakllantirish manbalariga ko'ra, quyidagilardan iborat bo'ladin(1-rasm).



1-rasm. NNTlar mablag'larini shakllantirish manbalari

Kirish va a'zolik badallari deganda NNTlar qatnashchilari tomonidan to'lanadigan kirish va a'zolik badallari tushuniladi. Bu badallarning miqdori har bir NNTning ustav hujjatlari bilan belgilanadi.

Grant deganda ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun hukumat, nodavlat, xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ko'rsatiladigan tekin, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag'lar tushuniladi.



Subsidiyalar — bu belgilangan shartlar asosida NNTlarga davlat tomonidan pul yoki natura ko‘rinishida ko‘rsatiladigan yordam summasidir. Davlat tomonidan beriladigan yordam turli ko‘rinishda (qo‘shimcha berish, subvensiya va boshqalar) bo‘lishi va har xil shartlarga muvofiq taqdim etilishi mumkin.

Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari — bu belgilangan maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliq to‘lashdan ozod qilingan summalaridir.

Ehson — bu NNTlarga umumfoydali maqsadlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan beg‘araz taqdim etilgan pul yoki boshqa turdagi mablag‘lardir.

Foizlar — bu NNTlarning bo‘sh pul mablag‘larini banklardagi depozit hisobvaraqlariga joylashtirishdan olingan foiz to‘lovlaridir.


Hadya — bu fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida NNTlarga kelib tushadigan moliyaviy mablag‘lardir.

Davlat granti — bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yuritish uchun tanlov asosida ajratiladigan pul mablag‘lari va boshqa aktivlardir. Davlat grantlari NNTlarga davlat budjetidan, xususan, Oliy Majlis budjeti mablag‘lari hisobidan beriladi.

Maxsus davlat buyurtmasi — bu NNTlarga muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dastur va loyihalarni hayotga joriy etish uchun ajratilgan maqsadli mablag‘lardir.

NNTlarning barchasi mustaqil iqtisodiy birliklar, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Ushbu maqomda ular O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq har yili majburiy auditdan o‘tishi lozim bo‘lgan subyektlar sirasiga kiradi.

NNTlarni majburiy audit subyektlari sifatida qonun hujjatida belgilanishi quyidagi zaruratlar bilan izohlanadi (2-rasm).



2-rasm. NNTlarni majburiy audit subyektlari sifatida belgilanishining asosiy zaruratlari

Auditning asosiy maqsadi — NNTlarning moliyaviy hisobotlari realligini baholash va ularga xulosa berish uchun tegishli isbot-dalillarni to‘plashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun moliyaviy hisobotning barcha moddalari realligi ta‘minlanishi lozim. Bu bevosita moliyaviy hisobotning barcha moddalari bilan bog‘liq.

NNTlar faoliyati negizida, avvalo, uning ustav maqsadlari va vazifalarini bajarish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kelib tushgan mablag‘lardan oqilona foydalanish yotadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda yurtimizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini kengaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda faoliyatini tartibga solish borasida normativ-huquqiy hujjatlarning to‘liq kompleksi ishlab chiqilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi,



“O‘zbekiston Respublikasi nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi jamoat fondlari to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Fuqarolik kodeksida tijorat maqsadini ko‘zlamaydigan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllari yopiq ro‘yxat sifatida belgilanadi. Ma‘lumki, notijorat tashkilotlar Fuqarolik kodeksida bevosita nazarda tutilgan shakllarda (matlubot kooperativlari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari, muassasalar, yuridik shaxslarning uyushmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari), shuningdek, maxsus qonunlarda ko‘zda tutilgan boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda ham tashkil etilishi mumkin.

Tijorat maqsadini ko‘zlamaydigan tashkilotlar huquqiy shakllari ro‘yxatini “O‘zbekiston Respublikasi nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun to‘ldiradi. Ushbu qonunning 2-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi keltirilgan. Unga muvofiq, nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilotdir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Нариманов Б. Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкилотлар тарихи ва ривожланишининг асосий тенденциялари // Юрист Ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 3. – С. 18–29.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда.

Ш.Назаров. Конституция ва жамоат бирлашмалари. / Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, профессор А.Х. Саидов. –Тошкент: ТДЮИ, 2012. – Б. 30

Жўраева С. Фуқароларнинг сиёсий маданиятини юксалтиришда фуқаролик жамияти институтларининг роли // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2009. – № 4. –Б.24

Холманова Д.Р. Ўзбекистон Республикасида нодавлат нотижорат ташкилотларнинг жамоат бирлашмалари тизимидаги ўрни. Юрид. фан. ном.... дис. ТДЮУ, Тошкент, 2012. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/37583>. (Xolmanova D.R. The role of non-governmental non-profit organizations in the system of public associations in the Republic of Uzbekistan. Disser. cand. of jur. sciences. TSUL, Tashkent, 2012.)

Е.В. Нелюбина Гарантии и защита социальных прав человека и гражданина в Российской Федерации // Государство и право. 2010. – № 5. – С. 101–102.

Salamon L.M. and Sokolowski S.W., Beyond nonprofits: Re-conceptualizing the third sector. VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations, 27(4), 2016. – PP. 1515–1545.; Anheier H.K. and Salamon L.M., The nonprofit sector in comparative perspective. The nonprofit sector: A research handbook, 2, 2006. – PP. 90–114.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100